ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA’MINOT ZANJIRI MODELİ.....	1037
Safarov Xusan Samandar o‘g‘li, Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafrō‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	



B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Abdubotirova Madinaxon

TDIU, Kechki ta'lim va magistratura fakulteti

MRT-25 guruh magistranti

E-mail: msaidaliev@gmail.com

ORCID: 0009-0005-3198-8087

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida B2B segmentining raqamlashtirilishi dolzarb masala sifatida ko'rib chiqilib, Xitoy, Rossiya, Ozarbayjon va Qozog'istonning ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mazkur davlatlarda korxona resurslarini boshqarish (ERP) va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlari, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash vositalari, shuningdek kontent strategiyalarining B2B marketing jarayonlariga tatbiq etilishi o'rganildi. Tadqiqot natijalari Xitoyda B2B segmentida raqamli transformatsiya eng yuqori darajada ekanligini, Rossiyada o'rta-yuqori darajada rivojlanganini, Ozarbayjon va Qozog'istonda esa o'rta darajada ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston uchun mazkur tadqiqot xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish va milliy B2B raqamlashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot metodologiyasi asosan ikkilamchi ma'lumotlar, xalqaro hisobotlar, statistik ko'rsatkichlar va akademik manbalar tahliliga asoslangan.

Kalit so'zlar: B2B marketing, raqamli marketing, korxona resurslarini boshqarish (ERP), mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM), sun'iy intellekt (AI), mijoz sayohati (CJM), raqamlashtirish, xorijiy tajriba.

Abstract. This article examines the digitalization of the B2B segment in Uzbekistan's economy as a pressing issue and analyzes the experience of China, Russia, Azerbaijan, and Kazakhstan. The study investigates the implementation of enterprise resource planning (ERP) and customer relationship management (CRM) systems, artificial intelligence and big data tools, as well as content strategies in B2B marketing practices across these countries. The findings indicate that China demonstrates the highest level of digital transformation in the B2B sector, followed by Russia at a medium-high level, while Azerbaijan and Kazakhstan show a medium level of digitalization. For Uzbekistan, this research provides a methodological framework for benchmarking international experience and developing national B2B digitalization strategies. The research methodology is primarily based on secondary data analysis, including international reports, statistical indicators, and academic literature.

Key words: B2B marketing, digital marketing, enterprise resource planning (ERP), customer relationship management (CRM), artificial intelligence (AI), customer journey mapping (CJM), digitalization, foreign experience.

Аннотация. В статье рассматривается цифровизация B2B-сегмента экономики Узбекистана как актуальная проблема и анализируется опыт Китая, России, Азербайджана и Казахстана. В рамках исследования изучено внедрение систем управления ресурсами предприятия (ERP) и управления взаимоотношениями с клиентами (CRM), инструментов работы с искусственным интеллектом и большими данными, а также контент-стратегий в B2B-маркетинге указанных стран. Результаты исследования показывают, что уровень цифровой трансформации B2B-сегмента наиболее высок в Китае, в России он находится на среднем-высоком уровне, а в Азербайджане и Казахстане — на среднем уровне. Для Узбекистана данное исследование служит основой для сравнительного анализа зарубежного опыта и разработки национальных стратегий цифровизации B2B-сектора. Методология исследования базируется на анализе вторичных данных, международных отчетов, статистических показателей и академических публикаций.

Ключевые слова: B2B-маркетинг, цифровой маркетинг, управление ресурсами предприятия (ERP), управление взаимоотношениями с клиентами (CRM), искусственный интеллект (AI), путь клиента (CJM), цифровизация, зарубежный опыт.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari korxona va tashkilotlar faoliyatining barcha jabhalariga, jumladan marketing boshqaruvi tizimlariga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, B2B



(business-to-business) segmentida marketing faoliyatini raqamlashtirish jarayoni korxonalarga mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni shakllantirish, sotuv jarayonlarini optimallashtirish hamda bozor strategiyalarini yanada aniqroq rejalashtirish imkonini bermogda. Shu bois, B2B segmentida raqamli marketing tadqiqotlarini takomillashtirish masalasi nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylanmogda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli marketing texnologiyalari B2B sohasida an'anaviy yondashuvlarning o'rmini bosib, sun'iy intellekt (AI), avtomatlashtirilgan CRM tizimlari, ijtimoiy media marketingi hamda katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) tahliliga asoslangan strategiyalarni shakllantirmogda. Jumladan, J.R. Saura, D. Ribeiro-Soriano va D. Palacios-Marqués [1] o'z tadqiqotlarida sun'iy intellektga asoslangan CRM tizimlaridan foydalanish B2B marketing jarayonlarini optimallashtirish orqali raqobatbardoshlikni va mijozlarni saqlab qolish samaradorligini oshirishini asoslab berishgan. Shu bilan birga, M.S. Balaji va hammualliflar ijtimoiy tarmoqlarda B2B kommunikatsiyalarining muvaffaqiyati asosan xabar manbai va mazmunining aniqligiga bog'liqligini ta'kidlaydilar [2]. Bunday yondashuvlar V. Kumar va J. Järvinen kabi tadqiqotchilar tomonidan ham keng o'rganilgan bo'lib [3,4], B2B kompaniyalar uchun ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimlari eng samarali yo'nalish sifatida e'tirof etilgan.

MDH mamlakatlari misolida B2B sohasida raqamli marketingning rivojlanishi asosan internet marketing platformalarini integratsiyalash, raqamli ko'rgazmalar hamda onlayn biznes uchrashuvlar orqali namoyon bo'lmoqda. Rossiyalik tadqiqotchilar O.V. Ivanchenko va E.V. Baraulya [5] B2B kompaniyalarda integratsiyalashgan raqamli marketing dasturlarini joriy etish biznes samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan bo'lsalar, G. Savchuk va A. Yufereva [6] xalqaro B2B ko'rgazmalarida raqamli reklama va onlayn kommunikatsiya vositalarining ahamiyatini tahlil qilganlar. Ukrainalik T. Kuvaieva hammualliflari bilan birgalikda [7] pandemiya davrida B2B segmentida raqamli aloqa vositalarining tezkor moslashuvi korxonalarining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi fonida B2B marketing sohasini raqamlashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar kuchayib bormogda. Xususan, O.K. Elov, S. Berdialiyeva va S. Ortiqova o'z ilmiy ishlarida mamlakatimizda B2B marketingning sanoat tarmoqlaridagi o'rni va istiqbollarini tahlil qilib [8], korxonalar o'rtasidagi raqamli hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini qayd etadilar. Shuningdek, A. To'xtayev [9] raqamli marketingning hozirgi holatini o'rganib, davlat tomonidan ishlab chiqilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida marketing tizimlarini modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. N. Qodirova esa an'anaviy va raqamli marketingni qiyosiy tahlil qilib [10], ularning B2B segmentiga tatbiq etilishi strategik boshqaruvning yangi bosqichini shakllantirayotganini ko'rsatadi.

Demak, B2B marketingda raqamli texnologiyalarni joriy etish faqatgina yangi marketing vositalaridan foydalanish bilangina cheklanmay, balki butun biznes jarayonlarini ma'lumotlarga asoslangan, avtomatlashtirilgan va innovatsion modelga o'tkazish jarayonini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur mavzu O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham amaliy, ham ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, milliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va Ozarbayjon davlatlarining B2B segmentida raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish darajasi, ularning iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonidagi o'xshash va farqli jihatlari hamda mazkur tajribalarin O'zbekiston sharoitida qo'llanish imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqotning umumiy maqsadidan kelib chiqib, metodologiya ikkilamchi ma'lumotlarga asoslangan qiyosiy (taqqoslovchi) tahlil yondashuvi asosida shakllantirildi.

Ikkilamchi ma'lumotlar rasmiy statistik va tahliliy manbalardan yig'ildi. Jumladan, International Telecommunication Union (ITU), World Bank, OECD, UNCTAD tashkilotlarining hisobotlari, shuningdek Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va Ozarbayjonning raqamlashtirish sohasiga mas'ul vazirlik va idoralarining rasmiy ma'lumotlari o'rganildi. Bundan tashqari, xalqaro indekslar va reytinglar, xususan UNDESA Digital Economy Indicators, Global Digital Competitiveness Index (IMD), World Bank Enterprise Surveys hamda tegishli ilmiy maqolalar tadqiqotning axborot bazasini shakllantirdi.

Tadqiqot obyektlari sifatida aynan Xitoy, Rossiya, Ozarbayjon va Qozog'iston davlatlarining tanlanishi bir qator omillar bilan izohlanadi. Xitoy dunyodagi eng rivojlangan B2B raqamli transformatsiya modellari shakllangan mamlakatlardan biri bo'lib, O'zbekiston uchun uzoq muddatli strategik benchmark hisoblanadi. Rossiyada raqamli infratuzilma nisbatan rivojlangan bo'lsa-da, B2B marketingning tarmoqlar kesimida notekis



rivojlanishi O'zbekiston uchun xos bo'lgan cheklavlarga o'xshash jihatlarni namoyon etadi va shu sababli qiyosiy tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ozarbayjon va Qozog'iston esa iqtisodiy tuzilmasi hamda davlat boshchiligidagi amalga oshirilayotgan raqamlashtirish modeli jihatidan O'zbekiston sharoitiga eng yaqin mamlakatlar sifatida tanlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda tanlangan mamlakatlarda B2B segmentining raqamli transformatsiyasi darajasi, raqamli marketing texnologiyalarining qo'llanish ko'lami hamda ularning iqtisodiy tuzilma bilan o'zaro bog'liqligi ikkilamchi ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Tanlov jarayonida O'zbekiston iqtisodiyotiga o'xshash, yaqin yoki istiqbolli iqtisodiy modelga ega bo'lgan mamlakatlar qamrab olindi: Xitoy (yuqori raqamlashtirilgan), Rossiya (o'rta-yuqori), Qozog'iston (o'rta) va Ozarbayjon (o'rta-past). Turli darajadagi ushbu mamlakatlarning tanlanishi o'zaro qiyosiy tahlil imkoniyatlarini kengaytirib, O'zbekiston uchun o'rganilishi mumkin bo'lgan tajriba diapazonini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlil natijalari Xitoyning B2B segmenti jahon miqyosida eng rivojlangan bozorlardan biri ekanligini ko'rsatadi. "China Internet Development Report 2024" ma'lumotlariga ko'ra [11], mamlakatda internetdan faol foydalanuvchi korxonalar ulushi 95 foizni, bulutli xizmatlardan foydalanuvchi kompaniyalar 78 foizni, B2B kompaniyalarida marketingni avtomatlashtirish darajasi esa 62 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar Xitoyda ishlab chiqarish sanoati, eksportga yo'naltirilgan klasterlar hamda yirik texnologik gigantlar (Alibaba, Baidu, Tencent) tomonidan shakllangan kuchli raqamli ekotizim bilan bevosita bog'liq.

Xitoy B2B bozorida sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan marketing analitikasi kompaniyalarning mijozlar sodiqligini sezilarli darajada oshirayotgani aniqlangan. Empirik tadqiqotlar bu ko'rsatkichning o'rtacha 18-25 foizgacha ko'tarilishini tasdiqlaydi [11]. Shuningdek, sanoat korxonalarida ehtiyojlarni oldindan prognoz qiluvchi algoritmlarning jadal joriy etilishi xarid jarayonlarining aniqligi va tezligini oshirayotgani qayd etilgan [12]. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan raqamli infratuzilma, davlat tomonidan strategik qo'llab-quvvatlash hamda platforma iqtisodiyotining taraqqiy etganligi B2B raqamli marketing samaradorligining asosiy omillari hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida so'nggi yillarda iqtisodiyotning umumiy raqamlashtirilishi tez sur'atlarda rivojlanayotgan bo'lsa-da, B2B segmentida raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish jarayoni notekis xarakterga ega. "Tsifrovaya ekonomika RF – Monitoring 2024" hisobotiga ko'ra [14], Rossiya korxonalarining 92 foizi internetdan foydalanadi, 63 foizi esa raqamli platformalar orqali ta'minot yoki xarid jarayonlarida ishtirok etadi. Shu bilan birga, ERP va CRM tizimlarini joriy etish darajasi nisbatan yuqori bo'lib, 48-52 foiz oralig'ida baholanadi.

Rossiyada B2B segmentining raqamli transformatsiyasi asosan "industrial B2B" sohalarida – neft-gaz, metallurgiya, kimyo va mashinasozlik kabi yirik sanoat tarmoqlarida jadal rivojlanmoqda [15]. Biroq kichik va o'rta biznes subyektlarida B2B raqamli marketing darajasi ancha past bo'lib, marketing avtomatlashtirishdan foydalanish ko'rsatkichi atigi 22 foizni tashkil etadi.

Rossiyada B2B elektron savdo bozorida "B2B-Center", "Fabrikant" va "Roseltorg" kabi yirik platformalar faoliyat yuritib, ular orqali amalga oshiriladigan davlat va korporativ xaridlar ulushi 45-50 foizga yetgan. Shu bilan birga, Rossiyada B2B sektorining raqamlashtirilishiga bir qator cheklavlari mavjud:

- marketing faoliyatining konservativligi;
- xalqaro platformalarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- import texnologiyalariga qaramlik;
- raqamli kompetensiyalarning yetishmasligi, ayniqsa kichik va o'rta biznes segmentida.

Rossiya bozorida B2B marketing rivojlanishining asosiy drayverlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ichki ishlab chiqarish hajmining kengayishi;
- davlat tomonidan raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning oshishi;
- IT sanoati va mahalliy raqamli platformalarning tez sur'atlarda rivojlanishi;
- korxonalar o'rtasida elektron hujjat aylanishining majburiy joriy etilishi.

Bundan tashqari, Rossiyada sun'iy intellektga asoslangan B2B marketing analitikasi jadal rivojlanmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, yirik korporatsiyalar orasida AI asosida mijoz yetakchilarini ball tizimi orqali baholash va talabni oldindan prognozlash vositalaridan foydalanish darajasi 38 foizga yetgan. Biroq kichik va o'rta biznes segmentida bu ko'rsatkich 10 foizdan oshmaydi [16].

Umuman olganda, Rossiya B2B bozori quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. raqamli infratuzilmaning nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi, biroq innovatsiyalarning sektoral notekisligi;
2. marketing texnologiyalarining asosan yirik sanoat korporatsiyalarida joriy etilishi;
3. iqtisodiy va geosiyosiy omillar tufayli global integratsiyaning cheklanganligi;



4. shunga qaramay, ichki raqamli ekotizimning kengayishi hisobiga B2B marketing o'sishining davom etishi.

Rossiya raqamlashtirish modeli O'zbekiston uchun qisman o'xshash bo'lib, sanoat sektorining yuqori ulushi, davlat ko'magiga tayanish hamda kichik va o'rta biznes segmentida raqamli kompetensiyalar tafovuti nuqtai nazaridan muhim qiyosiy tajribani taqdim etadi.

Qozog'istonning "Digital Kazakhstan 2020-2025" dasturi doirasidagi hisobotlarga ko'ra [17], biznes subyektlarining 84 foizi internetdan foydalanadi, korxonalar tomonidan ERP va CRM tizimlarini joriy etish darajasi 32 foizni, B2B elektron savdoning umumiy elektron savdodagi ulushi esa 18 foizni tashkil etadi.

Qozog'iston B2B bozorida raqamli marketing faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- xomashyo sektorining ustuvorligi;
- davlat tomonidan IT infratuzilmasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar;
- transchegaraviy savdoning rivojlanishi, ayniqsa Xitoy va Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar.

Qozog'iston B2B kompaniyalari orasida targetlangan reklama va professional platformalardan foydalanish darajasi 45 foizni tashkil etadi, biroq marketing avtomatlashtirish darajasi juda past bo'lib, atigi 15 foizga teng.

Ushbu natijalar Qozog'istonda raqamli transformatsiya jarayoni asosan "yuqoridan pastga" yondashuv asosida, ya'ni davlat siyosati orqali boshqarilayotganini ko'rsatadi.

Ozərbayjonning "Digital Economy Roadmap 2025" hisobotiga ko'ra [18], biznes subyektlarining 82 foizi internetdan foydalanadi, korporativ raqamli tizimlardan foydalanish darajasi 25 foizni, B2B elektron savdoning ulushi esa atigi 14 foizni tashkil etadi.

Ozərbayjonda B2B marketing modelining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotda neft sektorining ustunligi sababli B2B marketingning asosan sanoat xaridlariga yo'naltirilganligi;
- raqamli marketingga o'tish jarayonining sekin kechishi;
- korxonalarning atigi 22 foizi B2B segmentida SMMni samarali vosita deb baholashi;
- professional B2B platformalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Ozərbayjon uchun asosiy muammo iqtisodiy tuzilmaning yetarlicha diversifikatsiyalanmaganligi bilan bog'liq bo'lib, bu holat raqamli infratuzilmaning rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi tahlillar va to'plangan ma'lumotlar asosida to'rtta xorijiy davlat hamda O'zbekistonning B2B raqamli transformatsiyasi darajasi keyingi jadvalda umimlashtiriladi.

1-jadval. B2B raqamli transformatsiya darajasi tahlili

Ko'rsatkichlar	Xitoy	Qozog'iston	Ozərbayjon	Rossiya	O'zbekiston
B2B raqamli transformatsiya darajasi	Yuqori	O'rta-yuqori	O'rta	O'rta-yuqori	O'rta
ERP/CRM joriy etilishi, foizda	70-80	50-55	32	48-52	22-28
B2B digital marketing maturity	Rivojlangan	O'sayotgan	O'rta	O'sayotgan-o'rta	Boshlang'ich
Elektron savdo ulushi (B2B e-commerce), foizda	30+	20-25	18	25-28	12-14
AI / Big Data qo'llanilishi	Juda keng	O'rtacha	Past-o'rtacha	O'rtacha-yuqori	Juda past

Jadval ko'rsatkichlariga ko'ra, B2B raqamli transformatsiya darajasi va digital marketingning rivojlanishi mamlakatlar bo'yicha aniq farqlanadi. Xitoy B2B sektorida eng yuqori raqamlashtirish darajasiga ega bo'lib, ERP/CRM tizimlari va AI/Big Data vositalari keng qo'llanilmoqda; B2B digital marketing juda rivojlangan va elektron savdo ulushi 30% dan yuqori. Malayziya va Rossiya o'rta-yuqori darajada bo'lib, raqamli strategiyalarni joriy etish va elektron savdo ulushi o'sib bormoqda. Ozərbayjon o'rta darajada transformatsiyaga ega, ERP/CRM va AI joriy etilishi O'zbekiston bilan taqqoslaganda yuqoriroq, ammo hali rivojlanish uchun imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston esa B2B raqamli marketing bo'yicha boshlang'ich bosqichda, ERP/CRM joriy etilishi past, AI/Big Data qo'llanilishi juda cheklangan va elektron savdo ulushi ham nisbatan past.

Shu bilan, jadval mamlakatlarning raqamli transformatsiya darajasini solishtirish imkonini beradi va O'zbekiston uchun B2B digital marketingni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xitoy tajribasi ko'rsatadiki, B2B segmentida raqamli transformatsiya davlat siyosati va texnologik infratuzilmaning yuksak darajada rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. "Raqamli Xitoy" strategiyasi ostida korxonalar ERP/CRM, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni boshqarish tizimlaridan keng foydalanmoqda. Xitoy B2B kompaniyalari o'z mijozlarini chuqur segmentlash, ularning xarid xatti-harakatlarini bashorat qilish, ishlab chiqarish va logistika tizimlarini integratsiyalash orqali yuqori samaradorlikka erishmoqda. Shuni ta'kidlash



mumkinki, Xitoy texnologik gigantlar, davlat yordami va korxonalarning sun'iy intellekt yordamida ishlash madaniyati shakllangani uning hozirda bozor yetakchisiga aylanishida xizmat qilgan.

Rossiyada esa B2B raqamli transformatsiyasi ayniqsa pandemiyadan keyin tezlashgani kuzatiladi. Rossiya kompaniyalari, xususan, kichik va o'rta biznes segmenti, CRM tizimlari, mahalliy ishlab chiqilgan ERP platformalari hamda elektron savdo maydonchalari orqali yangi bozor modellari moslashmoqda. Biroq cheklovlar va sanksiyalar sabab global xizmatlar va texnologiyalar bilan integratsiya sustlashgan. Shunga qaramay, Rossiya ichki raqamli infratuzilmani kengaytirish, IT-mustaqillik va mahalliy platformalarni yaratishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu Rossiya B2B sektorini o'ziga xos, ichki bozorga yo'naltirilgan raqamli ekotizim tomon yetaklamogda.

Qozog'iston tajribasi mintaqaviy miqyosda eng muvozanatli model sifatida namoyon bo'ladi. Bu mamlakat B2B raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan strategiyalarni xalqaro integratsiya bilan uyg'unlashtira olgan. Qozog'iston korxonalarida ERP/CRM joriy etilish sur'atlari yuqori, elektron hukumat tizimlari rivojlangan, logistika va energetika kabi yirik tarmoqlarda raqamli nazorat tizimlari keng qo'llaniladi. Muhokama jarayonida Qozog'istonning asosiy afzalligi – u Markaziy Osiyo uchun innovatsion "ko'priq" vazifasini bajarishi, shu bilan birga chet davlatlar texnologiyalarini moslashtira olishi ekanligi aniqlandi.

Ozərbayjon B2B raqamli transformatsiyasida esa so'nggi yillarda sezilarli o'sish kuzatildi. Bu mamlakatda raqamlashtirish neft-gaz sektori orqali boshlanib, keyinchalik logistika, moliya va xizmat ko'rsatish sohalariga kengaygan. Ozərbayjonning "Raqamli iqtisodiyot – 2030" strategiyasi doirasida biznes jarayonlarida CRM, ERP, elektron hujjat almashish va bulut texnologiyalaridan foydalanish ko'paymoqda. Muhokama jarayoni shuni ko'rsatadiki, Ozərbayjon kichik bozor hajmiga ega bo'lsa-da, raqamli texnologiyalarni tez qabul qilishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va xalqaro hamkorlikni kengaytirishi uni tahlil uchun muhim namuna sifatida tanlashga asos bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va Ozərbayjon tajribalarini solishtirish natijasida raqamli B2B marketing strategiyalarining o'ziga xos jihatlari hamda mintaqaviy farqlari aniqlandi. Umuman olganda, barcha davlatlarda CRM va ERP tizimlarining joriy etilishi, sun'iy intellektga asoslangan marketing amaliyotlari hamda elektron savdo platformalarining rivojlanishi yuqori sur'atlarda kechmoqda. Biroq har bir mamlakat ushbu jarayonlarni o'zining siyosiy, iqtisodiy va texnologik muhitiga mos yo'nalishlarda shakllantirgan.

Xitoy tajribasi innovatsiyalarni keng qamrovda joriy etish, sun'iy intellektga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish va biznes jarayonlarini to'liq integratsiyalash bo'yicha boshqa davlatlar uchun ilg'or namuna bo'lib xizmat qiladi. Rossiya misolida esa ichki IT-mustaqillikni ta'minlash va mahalliy raqamli platformalarni rivojlantirishning afzalliklari yaqqol namoyon bo'ladi. Qozog'istonning moslashuvchan modeli xalqaro tajribani milliy sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashtirish mumkinligini ko'rsatadi. Ozərbayjon esa bozor hajmi nisbatan kichik bo'lishiga qaramay, tezkor raqamlashtirish va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash orqali B2B segmentini sezilarli darajada kuchaytirish mumkinligini namoyish etadi.

Umumiy xulosaga ko'ra, mintaqada davlatlarida B2B raqamli marketing tizimining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega: ERP va CRM tizimlarini to'liq integratsiyalash, sun'iy intellekt asosida mijozlarni boshqarish mexanizmlarini kengaytirish, elektron savdo maydonchalarini rivojlantirish hamda biznes subyektlarida raqamli kompetensiyalarni oshirish. Raqamli transformatsiya jarayonida davlat siyosatining roli barcha mamlakatlar kesimida muhim omil sifatida qayd etildi va mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan tizimli islohotlar kelgusida B2B bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi kutiladi.

Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun Qozog'iston va Ozərbayjonning nisbatan muvaffaqiyatli modellarini chuqur o'rganish, ularni Xitoyning ilg'or texnologik yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish hamda Rossiyaning ichki raqamli tizimlarni shakllantirish borasidagi tajribasidan oqilona foydalanish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Saura J. R., Ribeiro-Soriano D., & Palacios-Marqués D. (2021). Setting B2B digital marketing in artificial intelligence-based CRMs: A review and directions for future research. *Industrial Marketing Management*, 98, 161-178. <https://doi.org/10.1016/j.indmarman.2021.08.006>
2. Balaji M. S., Behl A., Jain K., Baabdullah A. M., Giannakis M., Shankar A., & Dwivedi Y. K. (2023). Effectiveness of B2B social media marketing: The effect of message source and message content on social media engagement. *Industrial Marketing Management*, 113, 243-257. <https://doi.org/10.1016/j.indmarman.2023.06.011>
3. Järvinen J., & Taiminen H. (2016). Harnessing marketing automation for B2B content marketing. *Industrial Marketing Management*, 54, 164-175. <https://doi.org/10.1016/j.indmarman.2015.07.002>
4. Kumar V., & Petersen J. A. (2021). Role of digital transformation in B2B marketing and sales. *Journal of Business Research*, 133, 280-289. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2021.04.043>



5. Ivanchenko O. V., Baraulya E. V., & Lobas Y. N. (2021). Integrated Internet marketing program for B2B sector company. IBIMA Publishing Journal of Marketing Studies. <https://ibimapublishing.com/p-articles/37MKT/2021/37156521>
6. Savchuk G., Yufereva A., & Efimova A. (2022). Digital marketing tools in promoting international B2B exhibitions: Experience of European and Russian events. *Znak Media Journal*. <https://www.znakmedia.ru/index.php/znak/article/view/546>
7. Kuvaieva T., Shynkarenko N., & Pilova K. (2021). B2B digital marketing communications research during the COVID-19 pandemic. *Applied Sciences and Engineering Journal (ASEJ)*, 25(3), 45-59. <https://asej.eu/index.php/asej/article/view/5461>
8. Elov O. K., Berdaliyeva S., & Ortiqova S. (2023). B2B marketing va sanoatdagi o'rni. *Economics and Research Journal*, 5(2), 43–49. <https://erus.uz/index.php/er/article/view/5381>
9. To'xtayev A. (2022). Raqamli marketingning mamlakatimizda hozirgi holati va uni rivojlantirish yo'llari. *Marketing va Menejment Ilmiy Tadqiqotlari Jurnal (MMIT)*, 4(1), 71–78. <https://mmit.tiue.uz/index.php/journal/article/download/117/150/481>
10. Qodirova N. (2023). An'anaviy va raqamli marketing rivojlanish bosqichlari, yo'nalishlari, afzalliklarining qiyosiy tahlili. *Interjournal*, 6(2), 95-101. <https://interjournal.uz/index.php/journals/article/download/79/65/244>
11. Internet Development Report. (2024). China Internet Network Information Center (CNNIC). <http://www.cnnic.net.cn/IDR/2024/index.htm>
12. Liu H., & Zhang W. (2023). AI-enabled marketing analytics in Chinese B2B firms: Impact on customer loyalty. *Journal of Business & Industrial Marketing*, 38(4), 450–468. <https://doi.org/10.1108/JBIM-12-2022-0456>
13. Chen Y., Li J., & Wang T. (2022). Predictive procurement algorithms in B2B industrial markets in China. *Industrial Management & Data Systems*, 122(7), 1345-1362. <https://doi.org/10.1108/IMDS-11-2021-0712>
14. Ministry of Digital Development, Russian Federation. (2024). Tsifrovaya Ekonomika RF – Monitoring 2024. Moscow: Government of Russia. <https://digital.gov.ru/monitoring2024>
15. Sokolov A. (2022). Digital marketing adoption in Russian SME B2B sector: Challenges and prospects. Moscow: Russian Economic University Press.
16. Karpov V. (2024). AI-based analytics in Russian B2B firms: Lead scoring and demand forecasting adoption. *Russian Journal of Digital Economy*, 5(1), 34-49.
17. Digital Kazakhstan 2020–2025. (2020). Republic of Kazakhstan Ministry of Digital Development. <https://digital.gov.kz/roadmap2025>
18. Digital Economy Roadmap 2025. (2021). Ministry of Digital Development and Transport, Azerbaijan. <https://www.digital.gov.az/roadmap2025>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>